Эмпирический анализ основан на данных за 2015–2023 годы по налоговым поступлениям, оценкам налогового потенциала, региональному ВРП и динамике коэффициентов собираемости по основным видам налогов; дополнительно формируются прогнозы коэффициентов собираемости и налоговых доходов на 2024–2026 годы. Результаты показывают высокую степень реализации потенциала по отдельным налогам (акцизы, налог за пользование недрами) и значительное недоиспользование потенциала по налогу на имущество и единому земельному налогу. На основе полученных выводов предложены практические рекомендации по внедрению единой национальной методики расчета налогового потенциала, интеграции индекса налогового потенциала в формулы межбюджетного выравнивания, привязке KPI органов власти к коэффициентам собираемости и применению портфеля моделей при прогнозировании доходов бюджета.

Ключевые слова: государственный бюджет, налоговый потенциал, налоговая емкость, коэффициент собираемости налогов, прогнозирование доходов бюджета, региональный ВРП, фискальное выравнивание, Узбекистан.

KIRISH

Davlat budgeti daromadlarini barqaror va ishonchli rejalashtirish iqtisodiy siyosatning eng muhim tarkibiy qismidir. Budget parametrlarining aniqligi fiskal barqarorlik, makroiqtisodiy o'sish va ijtimoiy majburiyatlarning bajarilishi bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, soliq salohiyati – davlatning mavjud iqtisodiy baza, institutsional sharoit va soliqqa rioya etish darajasidan kelib chiqib, fiskal tizimni izdan chiqarmagan holda undira oladigan soliq tushumlarining maksimal (yoki normativ) hajmi – strategik kategoriya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlarda budget daromadlari prognozi asosan tarixiy dinamikaga va qisqa muddatli statistika modellarga tayanadi, soliq salohiyati esa ko'pincha nazariy kategoriya sifatida qolib ketadi. Natijada, budget rejalashtirishda iqtisodiy struktura, hududiy tafovutlar, soliq ma'murchiligi samaradorligi va soliq salohiyati yetarli darajada hisobga olinmaydi.

Maqolaning maqsadi – soliq salohiyati bo'yicha mavjud nazariy va amaliy tadqiqotlarni tizimli tahlil qilgan holda, davlat budgeti daromadlarini rejalashtirish va prognozlashtirishda soliq salohiyatining o'rnini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida kompleks yondashuvni shakllantirish uchun ilmiy asos yaratishdir. Shu maqsadda quyida avvalo nazariy asoslar, so'ngra oldingi tadqiqotlar – global, hududiy va milliy darajadagi ishlar – mantiqiy va xronologik ketma-ketlikda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq salohiyati (tax capacity) tushunchasi klassik davlat moliyasi nazariyasida davlatning iqtisodiy va institutsional imkoniyatlaridan kelib chiqib, barqaror ravishda undirishi mumkin bo'lgan soliq yukining maksimal darajasini ifodalovchi kategoriya sifatida shakllangan (Musgrave, 1959)¹. Musgrave soliqlarni iqtisodiy o'sish, resurslarni qayta taqsimlash va iqtisodiy sikllarni stabilizatsiya qilish vositasi sifatida ko'rib, soliq yukining haddan tashqari oshishi ham iqtisodiy faollikka, ham budget barqarorligiga ikki tomonlama (ijobiy va salbiy) ta'sir ko'rsatishini nazariy jihatdan asoslaydi.

Chelliah (1971)² rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqlarning YAIMga nisbati bo'yicha kesishma-tarmoq tahlilini amalga oshirib, YAIM darajasi, tashqi savdo ochiqligi, qishloq xo'jaligi ulushi va eksport tarkibi kabi omillar "soliq sig'imi"ni belgilovchi asosiy determinantlar ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuv soliq salohiyatini faqat normativ- huquqiy emas, balki iqtisodiy-struktura bilan bog'liq empirik kategoriya sifatida talqin qilishga zamin yaratadi.

Keyingi bosqichda soliq sig'imi va soliq salohiyat (tax effort) tushunchalari shakllanadi. Le, Moreno-Dodson va Bayraktar (2012)³ 1994–2009 yillarda 113 ta mamlakat bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilib, soliq sig'imini YAIM, savdo ochiqligi, demografik tuzilma va institutsional sifat ko'rsatkichlari orqali baholaydi va real soliq/ YAIM nisbatini ushbu "salohiyat"ga nisbatan solishtirib, soliq salohiyatni aniqlaydi. Mawejje va Sebudde (2019)⁴ yangi global ma'lumotlar bazasi asosida ushbu yondashuvni takomillashtirib, soliq salohiyatni, ayniqsa past daromadli va o'tish iqtisodiyotlarida institutlar sifati va soliqqa rioya etish darajasi bilan bog'laydi.

Fenochietto va Pessino⁵ tomonidan taklif etilgan stoxastik chegara yondashuvlari soliq sig'imi va salohiyatni aniqlashda xatolik va samaradorlik komponentlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi; bunda soliq/

1 Musgrave, R. A. (1959). The theory of public finance: A study in public economy. New York: McGraw-Hill.

2 Chelliah, R. J. (1971). Trends in taxation in developing countries. IMF Staff Papers, 18(2), 254–325.

3 Le, T. M., Moreno-Dodson, B., & Bayraktar, N. (2012). Tax capacity and tax effort: Extended cross-country analysis from 1994 to 2009. World Bank Policy Research Working Paper No. 6252.

4 Mawejje, J., & Sebudde, R. K. (2019). Tax revenue potential and effort: Worldwide estimates using a new dataset. Economic Analysis and Policy, 63, 119–129.

5 Fenochietto, R., & Pessino, C. (2013). Understanding Countries' Tax Effort. IMF Working Paper No. 13/244. International Monetary Fund.



YAIM nisbatining “chegara” funksiyasidan og’ishi – soliq salohiyatidan to’liq foydalanilmaslik darajasi sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa soliq salohiyati davlat fiskal salohiyatining nafaqat miqdoriy chegarasini, balki soliqqa tortish samaradorligini ham aks ettiruvchi ko’rsatkichga aylanadi.

Nazariy yondashuvlarning keyingi rivojlanish bosqichi soliq salohiyatini hududiy daromad bazasi, fiskal nomarkazlashuv va budgetlararo munosabatlar bilan bog’laydi. Tsapulina va hammuallflar (2020)⁶, Martinez (2024)⁷ singari mualliflar soliq salohiyatini hududlar o’rtasida fiskal tengsizlik darajasini baholash va fiskal tenglashtirish mexanizmlarini loyihalashda ishlatiladigan indikator sifatida qaraydi. Bu yondashuv davlat budgeti daromadlarini rejalashtirishda soliq salohiyatini faqat umumiy milliy darajada emas, balki hududlar kesimida ham hisobga olish zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Shu tariqa nazariy asoslar quyidagicha umumlashtiriladi:

- soliq salohiyati – iqtisodiy struktura va institutsional omillar bilan belgilanadigan, soliq sig’imi va soliq salohiyatni o’zida mujassam etuvchi kompleks kategoriya;
- soliq salohiyati davlat budgeti daromadlarini o’rta va uzoq muddatli prognozlash uchun normativ-empirik ramka vazifasini bajarishi mumkin;
- hududiy soliq salohiyati fiskal decentralizatsiya va budgetlararo tenglashtirish mexanizmlarini loyihalashda alohida ahamiyatga ega.

Soliq daromadlarini prognozlash bo’yicha metodologik yondashuvlar bo’yicha tadqiqotlarda budget daromadlarini prognozlash bo’yicha dastlabki amaliy tadqiqotlar asosan klassik iqtisodiy-statistik usullarga tayanadi: trend ekstrapolyatsiyasi, chiziqli va ko’p omilli regressiya modellari, ARIMA va unga o’xshash vaqt qatori modellari (United Nations, 2017)⁸. Kozicki (2020)⁹ Polsha misolida chiziqli va nolinear tendensiyalarni solishtirib, budget daromadlari prognozi uchun model tanlash mezonlarini ishlab chiqadi. Okseniuk (2021)¹⁰ esa Ukraina davlat budgeti uchun QQS tushumlari prognozida regressiya va ARIMA kombinatsiyasi mavsumiylik va inqirozlar ta’sirini yaxshiroq aks ettirishini ko’rsatadi.

Serikova va hammuallflar (2020)¹¹ soliq ma’muriyati nuqtayi nazaridan YAIM, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar hajmi kabi makroindikatorlar asosida soliq tushumlari prognozini tuzish va ushbu prognozlar asosida soliq auditini rejalashtirish modelini taklif etadi. Bu ishlar daromad prognozlarini shakllantirishda ma’lumot sifati, strukturaviy uzilishlar (islohotlar, stavka o’zgarishlari) va model tanlash muammolarini ko’rsatib beradi.

So’nggi besh yillikda sun’iy intellekt va murakkab vaqt qatori modellari soliq daromadlarini prognozlashda keng qo’llanila boshladi. Thayyib va hammuallflar (2024)¹² Hindiston GST tushumlari bo’yicha TBATS, ETS, neyron tarmoqlar va gibrid modellarni solishtirib, ayrim gibrid yondashuvlarning ARIMA modeliga nisbatan prognoz xatolarini sezilarli darajada kamaytirishini ko’rsatadi. Kaushik (2024)¹³ Grey-forecasting (GM(1,1)) modeli yordamida Hindiston to’g’ridan-to’g’ri soliq tushumlari bo’yicha uzoq muddatli prognozlar tuzib, kichik va shovqinli ma’lumotlar sharoitida “grey-model”ning ustunliklarini asoslaydi. Telarico (2021)¹⁴ esa pandemiya sharoitida kichik ochiq iqtisodiyot – Bolgariya misolida ssenariyga asoslangan ekonometrik yondashuvni ishlab chiqib, tashqi shoklar keltirib chiqargan strukturaviy o’zgarishlarni modellarga integratsiyalash zarurligini ta’kidlaydi.

Yangi Zenlandiya gaznachiligi¹⁵ tomonidan tayyorlangan hisobotda daromad prognozlarini takomillashtirish uchun model portfeli yondashuvi, prognostik noaniqlik oralig’ini (fan chart) ochiq ko’rsatish va mustaqil ekspertlar paneli orqali prognozlarni muntazam diagnostika qilish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv prognozlash jarayonida nafaqat “bitta eng yaxshi model”, balki bir nechta alternativ senariy va model kombinatsiyalariga tayangan tizim zarurligini ko’rsatadi.

6 Tsapulina, O., Makusheva, N., & Ergunova, O. (2020). Assessment of the regional tax potential and its role in the formation of regional budgets. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 421(2), 022013.

7 Martinez, A. (2024). Tax potential as an indicator of sustainable dynamic economic development in regions: The case of Mexican states. Economic Consultant, 39(1), 45–59.

8 United Nations. (2017). Guidelines for public financial management and revenue forecasting. New York: United Nations.

9 Kozicki, B. (2020). Selected aspects of tax revenue forecasting in Poland. Scientific Papers of Silesian University of Technology, 142, 123–135.

10 Okseniuk, I. (2021). Methods of forecasting value added tax revenues for the state budget of Ukraine. Finance of Ukraine, 5, 32–45.

11 Serikova, S., Balginova, K., Shakharova, A., & Kurmanalina, A. (2020). Tax revenues estimation and forecast for state tax audit. Entrepreneurship and Sustainability Issues, 7(3), 2419–2435.

12 Thayyib, P. V., Thorakkattle, M. N., Usmani, F., Yahya, A. T., & Farhan, N. H. S. (2023). Forecasting Indian Goods and Services Tax revenue using TBATS, ETS, neural networks, and hybrid time series models. Cogent Economics & Finance, 11(2), 2285649. <https://doi.org/10.1080/23322039.2023.2285649>

13 Kaushik, P. (2024). The predictive grey forecasting approach for measuring tax collection: Evidence from India’s direct tax collections. Journal of Risk and Financial Management, 17(12), 558.yub

14 Telarico, F. A. (2021). Forecasting pandemic tax revenues in a small, open economy: The case of Bulgaria. Novi Ekonomist, 15(29), 18–28.

15 New Zealand Treasury, & Sense Partners. (2024). Review of the New Zealand Treasury’s revenue forecasting: Final panel report & Improving revenue forecasting. Wellington: The Treasury.



Tashqi shoklar, riskka asoslangan yondashuvlar va soliq risklarini COVID-19 pandemiyasi soliq tushumlarini prognozlashda tashqi shoklarning ahamiyatini yaqqol ko'rsatdi. Clemens va Veuger (2020)¹⁶ AQSh shtatlari misolida pandemiya davrida savdo va daromad soliqlari tushumlarining qisqarishini ssenariylar orqali baholab, makroprognozlardagi noaniqlikni soliq prognozlariga to'g'ridan-to'g'ri tranzlatsiya qilish metodikasini taklif etadi. Skorba va hammualliflar (2021)¹⁷ Ukraina misolida soliqlar bo'yicha oylik tushumlar dinamikasini fraktal va entropiya usullari bilan tahlil qilib, soliq tushumlari qatorlari yuqori noaniqlikka ega va oddiy parametrik modellarga to'liq tayanish xavfli ekanini ko'rsatadi.

Shevchenko (2024)¹⁸ davlat budgeti daromadlarida bilvosita soliqlarning o'rni va barqarorligini tahlil qilib, egiluvchan stavkali QQS va aksizlar fiskal barqarorlikni ta'minlashda "yostiq" vazifasini bajarishi mumkinligini asoslaydi. CIAT, IMF va SII (2022) tomonidan tayyorlangan "Handbook on Compliance Risk Management for Tax Administrations" qo'llanmasida soliq ma'muriyatlari uchun soliq risklarini identifikatsiya qilish, segmentatsiya va prioritetlashtirish asosida fiskal risklarni boshqarish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, bu model soliq tushumlari prognozlari ishonchligini oshirishda ham qo'llanilishi mumkin.

Hududiy soliq salohiyati va uni budgetlararo munosabatlarga integratsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Basnukaev (2019, 2022)¹⁹ Rossiya Federatsiyasi misolida hududlar soliq salohiyatini to'g'ridan-to'g'ri (makroindikatorlar) va bilvosita (soliq bazasi elementlari) yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali baholash zarurligini asoslaydi. Tsapulina va hammualliflar (2020)²⁰ ishlab chiqarish tuzilmasi, asosiy kapitalga investitsiyalar, bandlik va boshqa omillar asosida hududiy soliq salohiyatini hisoblab, ushbu ko'rsatkichlarni fiskal tenglashtirish formulalariga kiritishni taklif qiladi. Martinez (2024)²¹ Meksika shtatlarida soliq salohiyatini barqaror dinamik rivojlanish indikatori sifatida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qiladi. Bu ishlar hududiy soliq salohiyatini baholash natijalari respublika budgeti daromadlarini rejalashtirishda, ayniqsa budgetlararo transfertlar, subvensiyalar va subsidiya siyosatini loyihalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston va MDH mamlakatlari misolida soliq salohiyati va budget daromadlarini prognozlash masalalari so'nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Fayziev va hammualliflar (2019)²² ARDL yondashuvi asosida O'zbekiston budget daromadlari, ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni va soliq to'lovchilar soni o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog'liqlikni empirik tahlil qilib, korxonalar sonining ko'payishi prognoz qilingan budget daromadlarini oshirishda muhim determinant ekani xulosasiga keladi.

Khojakolov (2023)²³ davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri soliq prognozlash masalalarini ko'tarib, soliq salohiyatini hisoblash formulalarini taklif qiladi va iqtisodiy-matematik modelashtirish asosida budget ehtiyojlari va fiskal tenglashtirishni rejalashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Babayev (2019)²⁴ O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha xorijiy tajribani tahlil qilib, so'nggi ishlarida (Babaev, 2024)²⁵ soliq tushumlarini prognozlashni davlat moliyasini samarali boshqarishning asosiy funksiyasi sifatida talqin etadi. Abdunazarova (2024)²⁶ mahalliy budget daromadlarini prognozlash bo'yicha nazariy yondashuvlarni umumlashtirib, "budget salohiyati", "mahalliy soliq bazasi", "fiskal mustaqillik" kabi tushunchalarning o'zaro bog'liqligini asoslaydi hamda Surxondaryo viloyati misolida ARIMA modeli yordamida mahalliy budget daromadlari prognozini ishlab chiqadi. Allayarov (2024)²⁷ respublika darajasida soliq tushumlari prognozini takomillashtirishga doir metodik takliflar ishlab chiqib, axborot bazasini tozalash, soliq risklarini hisobga olish va soliq salohiyati ko'rsatkichlarini fiskal siyosat rejalashtirishiga tizimli integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

16 Clemens, J., & Veuger, S. (2020). Implications of the COVID-19 pandemic for state government tax revenues. *National Tax Journal*, 73(3), 619–644.

17 Skorba, O., Pasko, T., Babenko-Levada, V., & Tereshchenko, T. (2021). Dynamics of tax revenues in the budget of Ukraine and their forecast during the crisis period. *Public and Municipal Finance*, 10(1), 106–118.

18 Shevchenko, N. Yu. (2024). How important is the role of indirect taxes in the process of state budget revenue. *Modern Journal of Applied Economics and Justice*, 4(1), 15–25.

19 Basnukaev, M. S. (2019). Planning and forecasting in public tax management: Causes and impacts. *Journal of Tax Reform*, 5(1), 38–49.

20 Tsapulina, O., Makusheva, N., & Ergunova, O. (2020). Assessment of the regional tax potential and its role in the formation of regional budgets. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, 421(2), 022013.

21 Martinez, A. (2024). Tax potential as an indicator of sustainable dynamic economic development in regions: The case of Mexican states. *Economic Consultant*, 39(1), 45–59.

22 Fayziev, R. A., Khudoykulov, S. K., Rajapov, Sh. Z., & Axmadjonov, A. A. (2019). The forecasting budget revenues in ARDL approach: A case of Uzbekistan. *International Journal of Innovative Technologies in Economy*, 1(21), 6–12.

23 Khojakolov, R. (2023). Issues of correct tax forecasting in the formation of state budget revenues. *Economics and Education*.

24 Babayev, Sh. B. (2019). Perfection of methodology of forecasting of tax revenues from physical persons: Foreign experience. *International Finance and Accounting*, 5, 1–7.

25 Babaev, Sh. B. (2024). Forecasting tax revenues to the budget as a factor in the effective management of public finance. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 3(6), 343–346.

26 Abdunazarova, S., Abduganiev, O., Toshaliyeva, S., Kabilova, Z., Panjiev, K., & Bobomuratov, I. (2024). Forecasting local budget revenues based on the ARIMA model (Surkhandarya region as an example). *AIP Conference Proceedings*, MPASE 2024.

27 Allayarov, K. (2024). Improving the methods of forecasting tax revenues of the state budget of the Republic of Uzbekistan. *Neliti*.



Ruziev (2022)²⁸ esa soliqlarning budget daromadlaridagi strukturaviy o'rnini va soliq tizimini raqamlashtirish orqali fiskal barqarorlikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Umuman olganda, mavjud tadqiqotlar soliq salohiyati, soliq bazasi, mahalliy va respublika budget daromadlari hamda fiskal islohotlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergan bo'lsa-da, soliq salohiyatini turli soliq turlari, hududlar va soliq ma'murchiligi samaradorligi kesimida baholab, bu natijalarni davlat budgeti daromadlari prognozlar bilan bevosita bog'laydigan kompleks model O'zbekiston sharoitida hanuz yetarlicha ishlab chiqilmagan. Aynan shu ilmiy bo'shliq keyingi bo'limlarda taqdim etiladigan tadqiqot metodologiyasi va natijalarining asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maullif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, hududlar kesimida dolishtirma tahlil, tizimli modellashtirish, analiz, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan

Tahlil va natijalar

Dunyo iqtisodchilari Tuan Minx Le, Blanko Moreno-Dodson hamda Nihol Bayraktar tomonidan o'tkazilgan 1994-2009-yillarda 110 ga yaqin rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarida iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri soliq tizimi taraqqiyoti hisoblanadi, degan fikrga kelgan. Shuningdek, ularning fikricha soliq siyosati va uni amalga oshirish yuzasidan soliq ma'murchiligi oqibatida amaldagi soliq tushumlarining YAIMdagi ulushi ya'ni soliq salohiyati aniqlanadi. Ular tadqiqotlari natijasida soliq salohiyatidan kelib chiqib mamlakatlarni quyidagi to'rtta guruhga ajratgan:

- Soliq tushumlarining past darajasi, soliq yig'iluvchanligi darajasining pastligi;
- soliq tushumlari yuqoriligi, soliq yukining yuqoriligi;
- soliq tushumlarining pastligi, soliq yukining yuqoriligi;
- soliq tushumlarining yuqoriligi, soliq yig'iluvchanligining past darajasi.²⁹

Bir qator rus iqtisodchi olimlari soliqlarni rejalashtirish usuli sifatida soliq salohiyati va haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi o'zaro nisbat munosabatlarni baholash hamda shu asosda rejalashtirilayotgan davrga budget tizimi budgetlariga tushadigan soliq tushumlari hajmi aniqlash imkonini beradi, degan fikrni ilgari suradi³⁰.

Bugungi kunda soliq salohiyatini baholash ko'plab ilmiy nashrlarda yoritilib kelinmoqda, lekin shu bilan birga ko'plab tadqiqotlar o'tkazilishi natijasida mazkur tushunchaga yetarlicha izoh berilgan bo'lishiga qaramasdan uni hisoblashning yagona yondashuvi mavjud emasligi e'tirof etilgan³¹.

Fikrimizcha, soliq salohiyati bu davlat budgetiga o'tkazilishi belgilangan va qonunchilikda o'rnatilgan stavkalarda hisoblanadigan soliqlar, yig'im va boshqa majburiy to'lovlarning imkon darajasida yig'ilishi mumkin bo'lgan hajmi hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, davlat budgeti daromadlarini rejalashtirishning uslublaridan biri bo'lgan soliq salohiyatini hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz.

Soliq salohiyatini baholashning uchta usulda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- additiv usul;
- regression tahlil usuli;
- tuzilmaviy usul.³²

Additiv usulida soliq salohiyati quyidagi formula ko'rinishida keltirilgan tenglik orqali hisoblanadi:

$$CII = CD + 3 \quad (2.7)$$

bu yerda SP – soliq salohiyati;

SD – solikli daromadlar;

Z – soliq tushumlarini ko'paytirish zaxirasi.

Soliq salohiyatini hisoblashda tuzatish koeffitsiyentidan foydalanish:

$$CII = k \times CD \quad (2.8)$$

bu yerda k – tuzatish koeffitsiyenti.

28 Ruziev, Z. I. (2022). The role of taxes in the formation of state budget revenues. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(9), 58–65.

29 Tuan Minh Le, Blanca Moreno-Dodson, Nihal Bayraktar Tax capacity and Tax effort. Extended Cross-Country Analysis from 1994 to 2009. www.elibrary.worldbank.org/doi/abs/10.1596/1813-9450-6252#

30 Барулин С.В., Ермакова Е.А., Степаненко В.В. Налоговый менеджмент. – М.: Омега-Л, 2008.

31 Мирзаев Ф.И. Солиқ йиғилувчанлигини ҳисоблашнинг услубиёти ва амалиёти // Биржа-эксперт. – Тошкент, 2012. – № 3. – Б. 9–12.

32 Ислямудинов С.И. Налоговый потенциал территории: методологические аспекты формирования и использования. – Самара. 2007.



Additiv usulida soliq salohiyatini hisoblashda reprezentativ soliq foydalanish bo'lib, mazkur uslubning eng muhim xususiyati hududda yig'ilgan soliq tushumlarining miqdori xisobga olingan holda soliq salohiyatini baholash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi³³:

$$C\Pi = \sum_{i=1}^n X_i \times \frac{\sum_{j=1}^m T_{ij}}{\sum_{j=1}^m X_{ij}} \quad (2.9)$$

Bu yerda:

$\tilde{O}_i$ - i-soliq turi bo'yicha xududda hisoblangan summa;

$\dot{O}_j$ - i-soliq turi bo'yicha j-hududda tushgan tushum summasi;

$\tilde{O}_j$ - i-soliq turi bo'yicha j-hududda hisoblangan soliq summasi.

Ushbu formulani quyidagicha soddalashtirsak, ya'ni jami soliq salohiyati asosiy soliq turlari bo'yicha soliq salohiyati yig'indisiga tenglashtiriladi:

$$C\Pi = \sum_{i=1}^n X_i \times K_{ii} \quad (2.10)$$

Bu yerda:

K_{ii} - i-soliq turi bo'yicha reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, u quyidagicha aniqlanadi: ³⁴

$$K_{ii} = \frac{T_i}{X_i} \times 100\% \quad (2.11)$$

T_i - joriy davrda i-soliq turidan haqiqatda tushgan soliq tushumi;

X_i - joriy davrda i-soliq turi bo'yicha hisoblangan soliq summasi

Xulosa sifatida, soliq tushumlari reja va ijro ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqning qisqarilishi amalga oshirilayotgan budget-soliq siyosatining ijobiy natijasi sifatida baholanadi. Regression tahlil usuli miqdoriy jihatdan tahlil qilinayotgan o'zgaruvchi va bitta yoki bir qancha mustaqil o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikni tasvirlash imkonini beradi. Asosiy hisoblash formulasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$C\Pi = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n + \varepsilon \quad (2.12)$$

a_0 – ozod had;

$a_1, a_2, \dots, a_n$ - regressiya tenglamasi koeffitsiyentlari;

$x_1, x_2, \dots, x_n$ - soliq bazasini xususiyatlarini ifodalovchi omillar;

ε – stoxastik ifoda bo'lib, hisobga olinmagan omillar ta'sirini ifodalaydi.

Ushbu usulning afzalligi prognoz hisob-kitob ko'rsatkichlarini qisqa va o'rta muddatli vaqt intervalida aniqlash imkoniyatini beradi.

Soliq salohiyatini aniqlashning tuzilmaviy usulida yuqori budgetdan quyi budgetlarga moliyaviy yordamning oqilona taqsimlanishiga yordam beradi.

Endi, hudud soliq salohiyatini hisoblashning quyidagi 3 ta uslubini ko'rib chiqamiz: ³⁵

1. To'g'ri hisoblar usuli quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$XC\Pi = \sum_i^n CB \times \frac{t}{100} \quad (2.13)$$

33 Ислямутдинов С.И. Налоговый потенциал территории: методологические аспекты формирования и использования. – Самара. 2007. www.irt.su/wp-content/uploads/2012/05

34 Архипцева Л.М. Налоговый потенциал: теоретические и практические аспекты использования в планировании налоговых поступлений // Налоги и налогообложение. – №7. 2008. – С.39-46

35 Горский И.В. Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений // Финансы, –2002. – №6.



XCP – hudud soliq salohiyati;

n – soliq turlari soni;

CB – soliq bazasi;

t_i – soliq turi stavkasi, foizda.

Hisoblash jarayonida stavkaning eng yuqori chegarasi emas, haqiqiy stavkadan foydalaniladi.

2. Soddalashtirilgan usulning mohiyati statistik soliq hisobotlaridan foydalanib soliq salohiyati hisoblab topiladi. Masalan, statistik ko'rsatkichlarga ko'ra biror bir hududning 10 ta soliq turi bo'yicha solikli daromadlari jami soliq daromadlarining 90% ini tashkil etadi.

3. Haqiqiy tushumga asoslanga usul.

$$CP = X + K + I \quad (2.14)$$

X – haqiqatda tushgan soliq tushumlari;

K – hisobot davrida qarzdorlikning o'sishi;

I – mahalliy imtiyozlardan kelib chiqadigan soliq summasi.

Ushbu uslubning kamchiligi shundan iboratki, bu usuldan o'tgan hisobot davrlari uchun faqat haqiqatda tushgan tushumlar, qarzdorlikning oshishi va imtiyozlar bo'yicha foydalanish mumkin. Keltirilgan formula asosida istiqbol davrga soliq salohiyatini hisoblash uchun ma'lum bir vaqt oralig'ida o'rtacha mutloq o'sishning bir necha yillik tahliliy ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin. Shunday qilib, ushbu usulda kelgusi davrni hisoblash quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$CP = \frac{X_n - X_1}{n-1} + X + \frac{K_n - K_1}{n-1} + K + \frac{I_n - I_1}{n-1} + I \quad (2.15)$$

Bu yerda:


X_n, X_1 – haqiqiy tushumlar dinamik qatorining yakuniy (n) va dastlabki (1) darajasi;

K_n, K_1 – qarzdorlikni o'sishi dinamik qatorining yakuniy va dastlabki qatori;

I_n, I_1 – soliq imtiyozlari dinamik qatorining yakuniy va dastlabki darajasi.

Lekin mazkur yondashuvda soliq salohiyati prognoz hisob-kitobida kelgusi davrlar taqqoslama sharoitlarida o'sish dinamikasi yaqin bo'lishini va budget, soliq qonunchiligi o'zgarishlarini hisobga olinmasa-da, amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyundagi PQ-4389-son «Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofik, yuqoridagi xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda soliq tushumlari prognozini tayyorlash hamda hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining soliq salohiyatini baholash maqsadida ishlab chiqildi.



1-Rasm. O'zbekiston Respublikasida vakolatli organlar tomonidan soliq salohiyatini baholash usullari³⁶



Soliq salohiyatini baholash O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va Moliya vazirligi va uning xududiy boshqarmalari hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan quyidagi xaqiqiy ko'rsatkichlar, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va Reprezentativ soliq tizimi asosida baholash usullari amalga oshiriladi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosanib, O'zbekiston Respublikasining 2015-2021-yillar oralig'ida soliq tushumlari bo'yicha kuzatilgan dinamikasi iqtisodiy o'sishning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida tahlil qilinishi mumkin. Mazkur davr mobaynida umumiy soliq tushumlarining nominal narxda oshgani ko'rinib turibdi, bu esa davlat budgeti daromadlarining barqaror o'sishiga samarali hissa ko'shganligidan iboradir.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi 2015-2021-yillarda soliq turlari kesimida soliq tushumlari³⁷

Soliq turlari nomi	2015 yil tushum	2016 yil tushum	2017 yil tushum	2018 yil tushum	2019 yil tushum	2020 yil tushum	2021 yil tushum
Respublika bo'yicha jami	27 530,2	31 428,5	37 750,9	54 202,8	83 323,9	103 561,7	127 867,2
shu jumladan:							
Soliq tushumlari	22 455,7	25 540,9	33 885,8	49 941,8	80 229,5	97 979,1	120 317,9
Qo'shilgan qiymat solig'i	6 210,5	6 958,1	8 634,1	13 734,8	23 660,7	20 485,6	25 572,2
Aksiz solig'i	3 395,8	3 618,7	6 138,4	6 547,3	11 603,0	10 838,8	12 778,9
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	3 800,7	4 137,4	5 895,9	7 421,9	13 322,7	15 140,8	18 917,7
Foyda solig'i (+ qo'shimcha foyda)	1 833,0	2 617,0	2 890,7	5 030,2	9 975,8	28 712,3	38 363,3
Aylanmadan soliq (yagona soliq)	2 399,6	2 956,0	3 459,5	4 704,2	1 986,2	1 396,5	1 649,4
Yer qari foyd. uchun soliq	2 514,5	2 517,7	3 474,1	8 264,8	14 692,9	16 565,2	15 811,9
Mol-mulk solig'i	1 393,0	1 606,5	2 129,7	2 606,1	2 360,4	1 974,3	2 457,3
YUSHlar mol-mulk solig'i	1 056,4	1 214,1	1 554,1	1 897,8	1 553,7	1 240,8	1 576,1
JSHlar mol-mulk solig'i	336,6	392,4	575,5	708,3	806,7	733,4	881,2
Yer solig'i	750,1	966,7	1 091,8	1 504,2	2 313,3	2 386,8	4 082,8
YUSHlar yer solig'i	260,3	289,4	349,5	624,8	1 134,7	1 156,1	2 437,2
Yagona yer solig'i	147,6	276,5	212,5	216,2	273,1	150,8	225,3
JSHlar yer solig'i	342,2	400,8	529,8	663,2	905,4	1 079,9	1 420,3
Suv resursi foyd. uchun soliq	158,4	162,6	171,8	128,4	314,5	478,8	684,4
Soliqsiz tushumlar (boshqa)	5 074,5	5 887,6	3 865,1	4 261,0	3 094,4	5 582,6	7 549,3

Bevosita hisoblash metodi soliq salohiyatining jamlanish xususiyatiga tayangan holda amalga oshiriladi. Ya'ni, hududning soliq salohiyati alohida soliq turlari salohiyatlarining yig'indisiga teng. Hududning ma'lum bir soliq turi bo'yicha soliq salohiyatini bevosita hisoblash metodi orqali aniqlash quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$CC = \sum CCB_i * t_i$$

bunda,

CC- hududning soliq salohiyati;

CCB_i – i soliq turining soliq solish bazasi;

37 O'zbekiston Respublikasi DSQ ma'lumotlari asosida, muallif hisob-kitobi



t_i - i soliq turining foiz stavkasi (chegaraviy stavka).

Soliq salohiyatini baholashning faktik metodi soliq summalarining haqiqiy (faktik) mikdorlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Metod mohiyatiga ko'ra amalda soliq salohiyatidan to'laonli foydalanishga mavjud soliq qarzidorliklari va soliqlar bo'yicha joriy etilgan imtiyozlar to'sqinlik qilishini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, hududda undirilishi mumkin bo'lgan maksimal soliq tushumlari mikdori soliq organlari tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan nazorat tadbirlari natijasida aniqlangan yangi soliq bazalari bo'yicha soliq summalarini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, soliq salohiyatini xaqqoniyligini ta'minlash maqsadida tushumlar tarkibidan ortiqcha undirilgan soliq to'lovlarini hamda soliqlar bo'yicha jarima va penyalarni chegirish lozim.

Shunga ko'ra ushbu metod asosida xududning soliq salohiyati quyidagicha hisoblanadi:

$$CC = CT + CK + I + KCC - OC - CJП$$

bunda,

CC – hududning soliq salohiyati;

ST – hisobot davridagi soliqlardan tushumlar;

SQ – hisobot davridagi soliq qarzidorligining o'sishi;

I – imtiyozlar hisobiga yo'qotilgan soliq tushumlari;

KSS – soliq organlari tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida qo'shimcha aniqlangan soliq summalar;

OC – ortiqcha undirilgan soliq summasi;

SJP – Soliqlar bo'yicha jarima va penyalar.

Hisob-kitoblar natijasida aniqlangan summa kelgusi hisobot davri uchun hudud bo'yicha soliq tushumlarining mumkin bo'lgan maksimal tushumlarini ifodalaydi.

Ushbu formula birlamchi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda hududning umumiy soliq salohiyati hamda aniq bir soliq turi bo'yicha soliq salohiyatini aniqlaymiz.

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi 2015-2021-yillarda haqiqiy ko'rsatkichlar asosida baholash usuli soliq tushumlari soliq salohiyati³⁸

Soliq turlari nomi	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Respublika bo'yicha jami	43 481,4	46 178,6	56 901,0	80 649,2	122 331,9	144 929,8	182 849,9
shu jumladan:							
Soliq tushumlari	37 197,4	39 018,2	51 394,9	74 542,9	117 303,5	136 602,6	173 855,5
Qo'shilgan qiymat solig'i	14 358,0	11 920,5	17 291,9	29 272,2	51 098,3	47 369,2	56 009,3
Aksiz solig'i	3 376,0	3 692,1	6 109,1	6 498,7	11 534,5	10 740,4	14 268,5
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	4 791,1	5 569,5	6 149,7	8 013,2	14 437,9	16 366,5	22 188,9
Foyda solig'i (+ qo'shimcha foyda)	2 433,4	3 084,9	3 519,5	6 926,6	12 145,1	31 302,6	47 008,2
Aylanmadan soliq (yagona soliq)	3 137,2	3 877,8	4 872,3	6 289,8	2 766,1	1 843,0	1 800,6
Yer qa'ri foyd. uchun soliq	2 482,7	2 530,2	3 451,7	8 211,9	14 648,2	16 582,1	16 730,5
Mol-mulk solig'i	1 428,5	1 678,5	2 257,7	2 961,0	2 862,4	2 800,2	4 017,3
YUSHlar mol-mulk solig'i	2 552,1	3 438,2	4 541,9	2 892,1	2 355,6	1 799,6	2 108,6
JSHlar mol-mulk solig'i	347,0	398,7	578,8	1 021,8	1 252,8	1 328,4	1 958,0
Yer solig'i	866,1	1 271,7	1 546,4	1 904,7	3 374,3	3 470,2	7 298,9
YUSHlar yer solig'i	385,2	443,8	613,1	702,0	1 422,6	1 362,0	2 772,0
Yagona yer solig'i	254,5	279,9	214,5	551,0	775,8	907,6	2 131,5
JSHlar yer solig'i	347,8	1 952,9	2 044,7	1 473,9	1 653,6	1 971,2	1 927,7
Suv resursi foyd. uchun soliq	1 427,5	1 714,7	1 686,6	939,2	1 062,6	1 370,1	1 191,8
Soliqsiz tushumlar (boshqa)	6 284,0	7 160,4	5 506,1	6 106,4	5 028,5	8 327,2	8 994,4

38 O'zbekiston Respublikasi DSQ ma'lumotlari asosida, muallif hisob-kitobi



O'zbekiston Respublikasining 2015-2021-yillarda haqiqiy ko'rsatkichlar asosida baholash usuli soliq tushumlari va soliq salohiyati bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarni faktlar asosida tahlil qilganda, quyidagi asosiy nuqталarга e'tibor qaratish zarur.

2015-yildagi 43 481 million so'mdan 2021-yilga kelib 182 849 million so'mga yetgan. Bu davr mobaynida soliq tushumlarining umumiy hajmi deyarli to'rt baravar oshgan, bu iqtisodiyotning o'sishi va soliq bazasining kengayishidan dalolat beradi.

Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari 2015-yilgi 14 358 million so'mdan 2021-yilda 56 009 million so'mga o'sgan. Bu ko'rsatkichlar iste'mol va ishlab chiqarish hajmining oshishganligiga ishora qiladi.

Xuddu shunday ko'rsatkichlar, aksiz solig'i tushumlari ham deyarli to'rt baravar oshganligi va bu aksizli mahsulotlar bozorining kengayishi va aksiz stavkalarining tartibga solinishi natijasida sodir bo'lganligini ifodalaydi. Foyda solig'i tushumlari 2015-yilgi 2 433 million so'mdan 2021-yilda 47 008 million so'mga oshgan. Bu korxonalarning foydaliligi va iqtisodiy samaradorligining oshishi bilan bog'liq.

Hisobot davrida aniqlangan soliq salohiyatidan foydalanish darajasi ya'ni, soliqlarning yig'uvchanlik koeffitsiyenti xududning hisobot davridagi soliq tushumlari hajmini tegishli davrdagi soliq salohiyati ko'rsatkichiga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$\text{ЙК} = \frac{\text{СТ}}{\text{СС}}$$

Bunda,

YK - soliqlarning yig'uvchanlik koeffitsiyenti;

ST - hisobot davridagi soliqlardan tushumlar;

CC - xududning soliq salohiyati.

2.9-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2015-2023-yillarda haqiqiy ko'rsatkichlar asosida baholash usuli asosida hisoblangan soliq salohiyatiga nisbatan soliqlarning yig'uvchanlik koeffitsiyenti³⁹

Soliq turlari nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Respublika bo'yicha jami	66,34	67,21	68,11	71,46	69,93	70,83	71,73
shu jumladan:							
Soliq tushumlari	65,93	67,00	68,39	71,73	69,21	70,03	70,85
Qo'shilgan qiymat solig'i	49,93	46,92	46,30	43,25	45,66	44,59	43,52
Aksiz solig'i	100,48	100,75	100,59	100,92	89,56	86,83	84,10
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	95,87	92,62	92,28	92,51	85,26	82,61	79,96
Foyda solig'i (+ qo'shimcha foyda)	82,13	72,62	82,14	91,72	81,61	81,48	81,35
Aylanmadan soliq (yagona soliq)	71,00	74,79	71,80	75,77	91,60	96,75	97,0
Yer qa'ri foyd. uchun soliq	100,65	100,64	100,30	99,90	94,51	92,97	91,43
Mol-mulk solig'i	94,33	88,02	82,46	70,51	61,17	52,88	44,59
YUSHlar mol-mulk solig'i	34,22	65,62	65,96	68,95	74,75	84,88	95,01
JSHlar mol-mulk solig'i	99,43	69,32	64,39	55,21	45,01	31,40	17,79
Yer solig'i	70,60	78,97	68,56	68,78	55,94	52,27	48,60
YUSHlar yer solig'i	57,00	89,00	79,76	84,88	87,92	95,65	96,0
Yagona yer solig'i	99,05	39,25	35,20	16,62	10,57	11,55	33,67
JSHlar yer solig'i	25,91	44,99	54,76	54,78	73,68	85,62	97,56
Suv resursi foyd. uchun soliq	10,18	13,67	29,59	34,95	57,43	69,24	81,05
Soliqsiz tushumlar (boshqa)	70,20	69,78	61,54	67,04	83,93	87,36	90,79

39 O'zbekiston Respublikasi DSQ ma'lumotlari asosida, muallif hisob-kitobi



2015–2021-yillar davomida soliq salohiyatiga nisbatan yig'uvchanlik koeffitsiyentlari soliq tizimining samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi. Aksiz solig'i bo'yicha 2021-yilda koeffitsiyent 89,56 % ga yetganligi shuni ko'rsatadiki, aksiz solig'i salohiyatidan deyarli to'liq foydalanilmoqda — bu soliq turining yig'implari yuqori darajada amalga oshirilayotganini anglatadi. Yer qa'ridan foydalanish soliqlari bo'yicha ham yuqori yig'uvchanlik kuzatiladi, bu esa bu tur soliq bazasining iqtisodiyotdagi rolini tasdiqlaydi.

Biroq mol-mulk solig'ida yig'uvchanlik 2021-yilda 61,17 % ga pasayib, nisbatan past darajani ko'rsatdi va bu soliq bazasidan samarali foydalanish masalalarini ko'rsatadi. Yagona yer solig'i yig'uvchanligi esa 2021-yilda atigi 10,57 % bo'lib, bu soliqdagi salohiyatning katta qismi ishlatilmayotganini anglatadi. Suv resursi soliqlarida yig'uvchanlik 2015-yildagi 11,10 % dan 2021-yilda 57,43 % ga oshdi, bu esa bu soliq orqali tushum olish samaradorligining yillar davomida yaxshilanganini bildiradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i yig'uvchanligi 2015-yilda 97,01 % bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 45,01 % ga pasaygan, bu soliq segmentida samaradorlik pasayganini ko'rsatadi.

2022 va 2023 yillar uchun tuzilgan arifmetik prognozlariga ko'ra, QQS yig'uvchanligi 2021-yildagi 45,66 dan 2023-yilda 43,52 ga tushishi kutilmoqda, shuningdek jismoniy shaxslar daromad solig'i ham pasayish yo'nalishida bo'ladi. Aksiz solig'i ham 2021-yildagi 89,56 dan 2023-yilda 84,10 ga pasayishi taxmin qilinadi. Shu bilan birga, aylanma soliq (yagona soliq) yig'uvchanligi 2021-yildagi 91,60 dan 2023-yilda 97,00 ga ko'tarilishi prognoz qilinadi, bu kichik o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i yig'uvchanligi ham mos ravishda yuqorilinishi kutiladi.

2024–2026 yillar bo'yicha umumiy soliq yig'uvchanlik koeffitsiyenti 2024-yilda 72,63 % dan 2026-yilda 74,43 % ga oshishi prognoz qilinadi, bu soliq tizimi bo'yicha umumiy samaradorlikning barqarorligini anglatadi. Shu bilan birga, QQS va aksiz solig'i kabi ayrim turlarda yig'uvchanlik pasayishi taxmin qilinmoqda, bu esa soliq ma'muriyatchiligi va iqtisodiy sharoitlar ta'sirida o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur tendensiyalar soliq siyosati va ma'muriy boshqaruvni yanada takomillashtirishni talab etadi, chunki soliqlar orqali to'planadigan mablag'lar mamlakat budgeti barqarorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Qo'shimcha ravishda, umumiy soliq yig'uvchanlikni oshirish soliq bazasini kengaytirish va ma'lumotlarni raqamlashtirish orqali soliq tizimining samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2024-2026-yillarda haqiqiy ko'rsatkichlar asosida baholash usuli asosida hisoblangan soliq salohiyatiga nisbatan soliqlarning yig'uvchanlik koeffitsiyenti prognoz ko'rsatkichlari⁴⁰

Soliq turlari nomi	2024 yil	2025 yil	2026 yil
Respublika bo'yicha jami	72,63	73,53	74,43
shu jumladan:			
Soliq tushumlari	71,67	72,49	73,31
Qo'shilgan qiymat solig'i	42,45	41,38	40,31
Aksiz solig'i	81,37	78,64	75,91
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	77,31	74,66	72,01
Foyda solig'i (+ qo'shimcha foyda)	81,22	81,09	80,96
Aylanmadan soliq (yagona soliq)	96,05	97,20	97,35
Yer qa'ri foyd. uchun soliq	89,89	88,35	86,81
Mol-mulk solig'i	36,30	28,01	19,72
YUSHlar mol-mulk solig'i	95,14	95,27	95,40
JSHlar mol-mulk solig'i	4,18	9,43	23,04
Yer solig'i	44,93	41,26	37,59

40 O'zbekiston Respublikasi DSQ ma'lumotlari asosida, muallif hisob-kitobi



YUSHlar yer solig'i	96,11	96,84	96,57
Yagona yer solig'i	55,79	77,91	80,03
JSHlar yer solig'i	97,50	97,44	97,38
Suv resursi foyd. uchun soliq	92,86	92,67	92,48
Soliqsiz tushumlar (boshqa)	94,22	94,65	94,08

pasayishi soliq bazasi yoki iqtisodiy sharoitlardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Aylanmadan soliq (yagona soliq) esa aksincha, 96,05 dan 97,35 gacha ko'tarilishi orqali iqtisodiyotda ba'zi soha yoki sektorlarda soliq bazasining kengayishi ehtimoli mavjudligini bildiradi. Yagona yer solig'i 55,79 dan 80,03 gacha tezkor o'sishi ko'zga tashlanadi, bu yer va unga bog'liq iqtisodiy munosabatlarda ko'rsatkichlar yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Yuridik shaxslarlar mol-mulk solig'i asosan barqaror (95,14 dan 95,40 gacha), Jismoniy shaxslarlar mol-mulk solig'i esa 4,18 dan 23,04 gacha o'sadi, bu mol-mulk bozori yoki hisobot berish tizimida muayyan yaxshilanishlar kuzatilayotganini ko'rsatadi. Tabiiy resurslar bilan bog'liq soliqlar, xususan Yer qa'ri foydalanish solig'i (89,89 dan 86,81 gacha) va Suv resursi solig'i (92,86 dan 92,48 gacha) yillar oralig'ida sal kamayishi yoki barqaror ahvolni saqlashi, bu sohalarida nisbatan barqaror, ammo ma'lum bir sabablarga ko'ra biroz pasayib borayotgan tushumlar relativ holatini namoyon qiladi.

Ushbu tahlilning umumiy xulosasi sifida, yig'uvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishi har bir soliq turi uchun ham, umumiy soliq tizimi uchun ham muhim indikator bo'lib hisoblanadi. Yuqori koeffitsiyentlar soliq salohiyatidan samarali foydalanilayotganini, past koeffitsiyentlar esa salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Aksiz solig'i va Yer qa'ri foydalanilganlik uchun soliq kabi soliq turlari yuqori yig'uvchanlik koeffitsiyentlari bilan ajralib turadi, bu soliqlarning iqtisodiyotdagi muhimligini va soliq bazasidan samarali foydalanilganini ko'rsatadi.

Mol-mulk solig'i va Yagona yer solig'i kabi ba'zi soliq turlarida esa koeffitsiyentlarning pasayishi soliq bazasidan foydalanishda mavjud muammolarni ko'rsatadi. Bu holatlar soliq siyosati va amaliyotini qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin.

Suv resursi foydalanilganlik uchun soliq ko'rsatkichlaridagi oshish esa ushbu soliq bazasidan foydalanish samaradorligining oshganini ko'rsatadi, bu esa soliq siyosati va idoralarning samarali ishini ko'rsatishi mumkin.

Ushbu tahlil natijalari soliq tizimini takomillashtirish, soliq bazasidan samarali foydalanish choralari ishlab chiqish va soliq yig'uvchanligini oshirish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Shuningdek, u soliq tizimining muayyan sohalarini kuchaytirish va takomillashtirish zarur bo'lgan joylarni aniqlashga yordam berishi bilan lozim.

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 118-moddasiga ko'ra soliq tushumlari ularning turlari bo'yicha qonun xujjatlarida belgilangan ajratma me'yorlariga Muvofiq respublikamiz budget tizimi budgetlari orasida taqsimlanadi.

Shunga ko'ra mahalliy budgetlarning soliq tushumlari ko'rinishidagi daromadlar bilan ta'minlanish darajasini aniqlashda quyidagicha formuladan foydalaniladi:

$$CT_r = \sum CC_i * V_i$$

bunda,

CT_r – r xudud budgetiga soliq tushumlari;

CC_i – soliq turlarining salohiyati;

V_i – soliq turlarining belgilangan hudud bo'yicha ajratma me'yorlari.

Hisob-kitoblar mazmuni xududning barcha soliq turlari bo'yicha salohiyat ko'rsatkichlari va ularning tegishli ajratma me'yorlariga o'zaro ko'paytmalarining yig'indisi iborat bo'ladi.

2024-yil uchun mahalliy budgetlar daromadlari foyda solig'i tushumlari va o'rtacha soliq yig'iluvchanlik koeffitsiyenti asosida tahlil qilinadi. Bu usul hududlarning mahalliy budgetlarga tushumlar ta'minlanish darajasini baholash va moliyaviy barqarorlikni aniqlash imkonini beradi.

2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining mahalliy budgetlarning soliq tushumlari ko'rinishidagi daromadlar bilan ta'minlanish darajasini tahlil qilganda, hududiy farqlar va soliq yig'iluvchanlik koeffitsiyentining ta'sirini ko'rish mumkin. Navoiy viloyatida foyda solig'idan mahalliy budgetga ajratmalar miqdori eng yuqori bo'lib, 61%, tashkil qilgan, bu hududning iqtisodiy faolligi va soliq bazasining kuchliligini ko'rsatadi.



4-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil uchun mahalliy budgetlarning soliq tushumlari ko'rinishidagi daromadlar bilan ta'minlanish darajasi⁴¹

Viloyatlar	2024-yil foyda solig'idan maxalliy budgetga ajratmalar miqdori, foizda	Soliq yig'iluvchanlik koeffitsiyenti	Shartli ravishda barcha hududlardan teng ravishda foyda solig'i yig'ilgan holatda	2024-yil foyda solig'idan xudud budgetiga soliq tushumlari
Navoiy viloyati ⁴²	61%	0,7	100	87,14
Toshkent viloyati ⁴³	39%	0,7	100	55,71
Toshkent shahri ⁴⁴	11%	0,7	100	15,71
Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlar ⁴⁵	100%	0,7	100	142,85

Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlar foyda solig'idan olinadigan daromadlari shartli ravishda barcha hududlardan teng ravishda foyda solig'i yig'ilgan holatda maxalliy budgetga 142,85 miqdorda ajratmaga ega bo'lishini anglatadi.

Shuningdek, foyda solig'idan mahalliy budgetga ajratmalar miqdori bo'yicha Toshkent shahri 11% bilan eng past ko'rsatkichga ega bo'lib, bu esa ushbu hududning mahalliy budgetini foyda solig'idan kamroq daromad bilan ta'minlashini ko'rsatadi. Boshqa tomondan esa, ushbu hudud yuqori daromad bazasiga ega va o'zining xarajatlarini o'zi qoplash yuqoriligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, soliq yig'iluvchanlik koeffitsiyenti barcha viloyatlar uchun 0,7 bo'lib, bu ko'rsatkich soliq siyosatining samaradorligi va soliq yig'ish tizimining umumiy holatini ko'rsatadi. O'zbekistonning turli hududlarida soliq tushumlarining bu kabi tafovutlari mahalliy budgetlarni rejalashtirish va budget ta'minotini yaxshilash maqsadida hududiy iqtisodiy siyosatlarni turlicha yondashish kerak ekanligidan dalolat beradi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida soliq salohiyatini baholashning oddiy metodi orkali aniqlangan ko'rsatkich hisobot davridagi jami soliq tushumlari va soliq qarzdorligining o'sishini o'z ichiga oluvchi xudud bo'yicha umumiy soliq majburiyatlarini ifodalaydi hamda respublika bo'yicha o'rtacha soliq stavkasi va yalpi xududiy mahsulot (YAHM) xajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Bunda o'rtacha soliq stavkasi barcha xududlarning jami soliq majburiyatlarini ularning jami YAHMga nisbati orqali aniqlanadi:

$$r = \frac{\sum_i CM_i}{\sum_i YAHM_i}$$

Bunda,

r – mamlakat bo'yicha o'rtacha soliq stavkasi;

CM-soliq majburiyatlari;

YAHM yalpi xududiy mahsulot.

Hududning soliq salohiyati yuqoridagi tartib asosida aniqlangan o'rtacha soliq stavkasini (r) mazkur hududning YAHM xajmiga nisbati orkali hisoblanadi:

$$CC = r * YAHM_i$$

Soliq salohiyatini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholashda olingan natijalar faqatgina ma'lum bir xududning soliq salohiyatini ifodalaydi. Ya'ni, xisoblash jarayonida qo'llaniladigan YAHM ko'rsatkichi tarkibida turli xil soliq turlarining soliq solish bazalari aralash holda bo'lganligi inobatga olinsa, ushbu metodika aniq bir soliq turi uchun soliq salohiyatini aniqlash maqsadida qo'llanilishi maqsadga muvofiq emas hisoblanadi.

41 O'zbekiston Respublikasi DSQ ma'lumotlari asosida, muallif hisob-kitobi

42 25.12.2023 yildagi "2024 yil uchun Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида" ЎРҚ-886-сонли Ўзбекистон Республикасининг Қонуни

43 25.12.2023 yildagi "2024 yil uchun Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида" ЎРҚ-886-сонли Ўзбекистон Республикасининг Қонуни

44 25.12.2023 yildagi "2024 yil uchun Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида" ЎРҚ-886-сонли Ўзбекистон Республикасининг Қонуни

45 25.12.2023 yildagi "2024 yil uchun Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида" ЎРҚ-886-сонли Ўзбекистон Республикасининг Қонуни



5-jadval. 2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi va viloyatlar kesimida soliq tushumlari, joriy narxlarida mlrd. so'mda⁴⁶

Xududlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil
O'zbekiston Respublikasi soliq tushumlari - Jami	127 866,9	148 388,3	165 917,5
Xududlar jami	45 583,3	60 087,4	68 248,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 789,8	2 384,7	2 631,3
Andijon viloyati	2 375,8	2 928,4	3 405,3
Buxoro viloyati	2 470,8	3 232,3	3 444,4
Jizzax viloyati	1 330,4	1 786,9	2 329,3
Qashqadaryo viloyati	2 997,8	3 678,3	3 897,9
Navoiy viloyati	1 400,5	1 690,6	1 996,8
Namangan viloyati	2 290,7	2 874,9	3 275,7
Samarqand viloyati	3 144,8	4 213,8	4 727,9
Surxondaryo viloyati	1 933,7	2 445,1	2 829,5
Sirdaryo viloyati	956,3	1 251,6	1 514,5
Toshkent viloyati	4 288,9	5 347,2	6 381,2
Farg'ona viloyati	3 242,4	4 324,7	4 740,8
Xorazm viloyati	2 004,3	2 567,9	2 624,9
Toshkent shahri	15 357,1	21 361,1	24 448,5
Yirik soliq to'lovchilar inspeksiyasi tomonidan yig'ilgan soliq to'lovlari	82 283,6	88 301,0	97 669,5

2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining soliq tushumlari bo'yicha dinamikasi mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'atlari va soliq bazasining kengayishini aks ettiradi. Ushbu davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi soliq tushumlarining nominal miqdori jami miqdori 127 866,9 milliard so'mdan 165 917,5 milliard so'mgacha o'sgan, bu esa nominal yillik o'rtacha 14,7% o'sishni ko'rsatadi.

Shuningdek, xududiy kesimda ham soliq tushumlarida muhim o'sishlar kuzatilgan: masalan, Toshkent shahrida eng yuqori o'sish qayd etilib, 2021-yilgi 15 357,1 milliard so'mdan 2023-yilga kelib 24 448,5 milliard so'mgacha o'sgan. 2021-2023-yillar oralig'ida Sirdaryo viloyati soliq tushumlari 956,3 milliard so'mdan 2023-yilda 1 514,5 milliard so'mgacha o'sgan. Bu o'sish, hududlar kesimida eng past bo'lsa-da, viloyatning iqtisodiy faoliyatining asta-sekin kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

5-jadval. 2021-2023-yillardagi O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi dinamikasi, joriy narxlarida mlrd. so'mda⁴⁷

Hududlar	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	738 425,2	896 617,9	1 066 569
Qoraqalpog'iston Respublikasi	25 681,8	30 117,6	32 916,1
Andijon	43 332,5	56 488,3	68 223,4
Buxoro	38 350,1	46 126,2	53 232,3
Jizzax	23 274,3	27 545,4	33 323,3
Qashqadaryo	42 560,2	49 692,3	58 404,5
Navoiy	58 730,3	68 799,4	81 943,2
Namangan	34 194,1	40 565,1	47 112,6
Samarqand	52 893,6	61 627,7	74 115,3
Surxondaryo	29 693,2	34 385,3	40 909,8
Sirdaryo	15 071,5	18 210,8	21 549,9
Toshkent	82 221,8	94 789,9	107 918,1
Farg'ona	47 760,5	56 315,9	65 781,0
Xorazm	26 464,3	32 541,0	36 916,5
Toshkent sh.	121 779,8	149 646,2	181 859,6

46 O'zbekiston Respublikasi DSQ ma'lumotlari asosida, muallif hisob-kitobi

47 O'zbekiston Respublikasi DSQ ma'lumotlari asosida, muallif hisob-kitobi



2021-2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki (hududiy) mahsulot (YAIM) hajmining o'sishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ko'rsatmoqda. YAIMning joriy narxlarda ko'rsatilgan umumiy hajmi 2021-yilda 738 425,2 milliard so'mdan 2023-yilga kelib 1 066 569 milliard so'mga yetgan, bu davr mobaynida mamlakat iqtisodiyotining sezilarli o'sishiga dalolat beradi. Hududlar kesimida ham o'sish sur'atlari kuzatilgan bo'lib, Toshkent shahri YAIM hajmi bo'yicha yetakchilik qilmoqda, uning iqtisodiyoti 2021-yilgi 121 779,8 milliard so'mdan 2023-yilda 181 859,6 milliard so'mgacha o'sgan. Bu hududiy farqlar mamlakat ichida iqtisodiy faollikning turlicha taqsimlanishi va resurslardan foydalanish samaradorligini ko'rsatib, regional rivojlanish siyosatini optimallashtirish va hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanish zaruratini ta'kidlaydi.

Realizatsiya qilingan soliq salohiyati ham muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi va u amaldagi soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini shartli ko'rsatkichlarda (indikatorlarda) ifodalashga imkon beradi. Hududlardagi mavjud soliq salohiyatini realizatsiya qilish darajasini aniqlash tegishli hududning hisobot davridagi jami soliq tushumlari hamda mazkur hududning ushbu davrdagi YAHM ko'rsatkichlariga asoslanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$PCC_{ji} = \frac{\sum_j CT}{YAHM} * 100\%$$

Bunda,

PCC_{ji} – realizatsiya qilingan soliq salohiyati, foizda;

ST – belgilangan hududdagi soliq tushumlari miqdori;

YAHM – yalpi xududiy mahsulot.

Yuqoridagi formula asosida belgilangan hududdagi mavjud soliq salohiyatining hisobot davrida necha foizidan foydalanilganligini aniqlash va shu orqali ushbu hudud bo'yicha soliq organlarining soliqlarni yig'ish bo'yicha faoliyati samaradorligini baholash mumkin.

Keltirilgan ma'lumotlar 2021-2023-yillar uchun O'zbekiston Respublikasining har bir hududi uchun YAIMning joriy narxlarda ko'rsatilgan hajmi va soliq tushumlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Tahlil natijasiga ko'ra, agar Navoiy viloyati uchun soliq tushumlari miqdori va YAIM ko'rsatkichlarini qo'llab, realizatsiya qilingan soliq salohiyatini hisoblasak, Navoiy viloyati yuqori soliq salohiyatini realizatsiya qilish darajasi bilan ajralib turadi, bu uning iqtisodiyoti kuchli va soliq ma'muriyatchiligi samarador ekanligini ko'rsatadi.

6-jadval. 2021-2023 yillardagi O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmida soliq salohiyatini realizatsiya qilish darajasi dinamikasi, foizda⁴⁸

Hududlar	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	5,77	6,04	6,43
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,35	12,63	12,51
Andijon	18,24	19,29	20,03
Buxoro	15,52	14,27	15,45
Jizzax	17,49	15,42	14,31
Qashqadaryo	14,20	13,51	14,98
Navoiy	41,93	40,69	41,04
Namangan	14,93	14,11	14,38
Samarqand	16,82	14,63	15,68
Surxondaryo	15,36	14,06	14,46
Sirdaryo	15,76	14,55	14,23

48 O'zbekiston Respublikasi DSQ ma'lumotlari asosida, muallif hisob-kitobi



Toshkent	19,17	17,73	16,91
Farg'ona	14,73	13,02	13,88
Xorazm	13,20	12,67	14,06
Toshkent sh.	7,93	7,01	7,44

Har bir hudud uchun soliq salohiyatining realizatsiya qilinishini hisoblash orqali, mahalliy soliq organlarining soliq yig'ish bo'yicha samaradorligi va mavjud iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasini baholash imkonini beradi.

Amaldagi soliq ma'muriyatchiligiga muvofiq ayrim turdagi soliqlar uchun respublikamizning turli hududlarida mazkur hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda turlicha soliq stavkalari belgilangan. Ushbu hollatlarda representativ soliq tizimi usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

$$CC_{jk} = \sum CB_k * \frac{PCC_{jk}}{100} \%$$

Bunda,

$CC_{jk} - k$ soliq turi bo'yicha u xududning soliq salohiyati;

$CB_k - k$ soliq turi bo'yicha xududning soliq bazasi;

$PCC_k - k$ soliq turi bo'yicha representativ (o'rtacha) soliq stavkasi.

Ushbu metod orqali aniqlangan ko'rsatkich ma'lum bir soliq turining belgilangan xudud uchun undirish mumkin bo'lgan maksimal miqdorini ifodalaydi.

Soliq salohiyati indeksi viloyat tarkibidagi tuman va shaharlarning budget mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini o'zaro solishtirish maqsadida qo'llaniladi va tuman(shahar)larning soliq daromadlarini mutlaq miqdorlarda jon boshiga ulushini ifodalamaydi.

$$CCH_r = \frac{CC_r}{AC_r} \div \frac{\sum CC_i}{AC}$$

Bunda,

$CCH_r - r$ tuman (shahar)ning soliq salohiyati indeksi;

$CC_r - r$ tuman (shahar)ning soliq salohiyati;

$AC_r - r$ tuman (shahar)ning doimiy aholi soni;

$CC_i - r$ viloyatdagi tuman va shaharlarning soliq salohiyati ko'rsatkichlari;

AC – viloyatning doimiy aholi soni.

Yuqoridagi formulalardan foydalanib, 2025-yil uchun hisoblangan budget daromadlari tushumlarining soliq salohiyati bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida davlat moliyasi tahlili uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, respublika miqyosida jami 218 636 birlik tushumlar kutilmoqda, shundan foyda solig'i 53 287 birlikni, daromad solig'i 40 973 birlikni va qo'shilgan qiymat solig'i 44 103 birlikni tashkil etishi rejalashtirilgan. Hududlar kesimida eng yirik tushumlar Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelayotgani (31 662 birlik), mamlakat iqtisodiy markazining sanoat, xizmatlar sohasi hamda moliyaviy infrastruktura jihatidan shakllanib borayotgan global uzal sifatida o'zining soliq salohiyatini namoyon qilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, Andijon (4 210 birlik), Buxoro (4 224 birlik), Samarqand (5 882 birlik), Farg'ona (5 684 birlik) va boshqa bir qator viloyatlar ham respublikaning iqtisodiy kartasida soliq salmog'ini oshirib, infratuzilma rivoji, ishlab chiqarish qulayliklari, logistika hamda mehnat resurslari sifatida ahamiyatli o'rin tutishini ko'rsatadi.

Differentsiatsiyalangan soliq tushumlari tarkibida asosiy o'rinni foyda solig'i, daromad solig'i va QQS egallashi iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat yaratish jarayoni hamda faoliyat rentabelligi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Shu tariqa, 2025-yil uchun hisoblangan soliq salohiyati prognoz ko'rsatkichlari respublikada soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi, tarmoqlar kesimidagi ishlab chiqarish hajmlari, tashkilotlar foydalilik darajasi, aholi daromadlari dinamikasi va hududiy iqtisodiy rivojlanish faktorlarini tizimli ravishda aks ettiradi. Mazkur ko'rsatkichlar davlat moliyaviy siyosatining maqsadli choralarini aniqlash, soliq yukini optimallashtirish va hududlar kesimida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



7-jadval. 2025-yil uchun Davlat soliq qo'mitasi bo'yicha budget daromadlari tushumlarining soliq salohiyatni hisoblagan holda prognoz ko'rsatkichlari

№	Hududlar nomi	JAMI DARO- MADLAR 2025 yil bo'yicha	shundan, soliq turlari bo'yicha													
			Foyda solig'i	AOS	Daromad solig'i	YATT qat'iy	Qo'shilgan qiymat solig'i	Aksiz solig'i, jami	Yuridik shaxs mulk solig'i	Jis-y shaxs mulk solig'i	Yuridik shaxs yer solig'i	Jis-y shaxs yer solig'i	Yer qa'rin foydalangank uchun soliq	Noruda	Suv resurslaridan foydak uchun soliq	Boshqa tushum-lar
	RESPUBLIKA JAMI	636 218	53 287	3 222	40 973	505	44 103	22 672	4 877	2 655	4 968	3 643	19 271	864	2 231	15 364
	YSTB SI	384 132	45 572	0	11 826	0	26 069	15 675	2 360	0	1 751	0	19 271	623	41	9 195
	DSBlar jami	252 86	7 715	3 222	29 147	505	18 034	6 997	2 517	2 655	3 217	3 643	0	241	2 189	6 169
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	213 3	132	86	1 259	14	578	423	56	102	99	237	0	28	51	149
2	Andijon viloyati	210 4	176	178	1 608	29	629	537	115	211	149	265	0	35	25	253
3	Buxoro viloyati	224 4	244	212	1 291	38	738	438	117	179	299	254	0	13	36	364
4	Jizzax viloyati	519 2	131	117	908	16	447	113	61	93	139	175	0	9	13	298
5	Qashqadaryo viloyati	708 4	189	155	1 700	23	862	536	139	194	219	371	0	18	27	275
6	Navoiy viloyati	318 2	156	96	929	11	362	207	58	70	110	83	0	21	35	181
7	Namangan viloyati	777 3	187	159	1 403	16	553	374	115	167	133	266	0	7	29	367
8	Samarqand viloyati	882 5	292	237	2 015	25	1 025	602	162	329	297	385	0	29	29	456
9	Surxondaryo viloyati	559 3	104	130	1 458	13	541	370	95	145	144	348	0	10	63	138
10	Sirdaryo viloyati	893 1	182	71	611	9	398	100	53	53	75	75	0	5	59	202
11	Toshkent viloyati	220 8	685	298	2 403	52	1 701	1 155	297	256	498	454	0	36	48	338
12	Farg'ona viloyati	684 5	351	281	2 027	36	895	743	180	253	242	346	0	21	37	272
13	Xorazm viloyati	382 4	179	188	1 126	23	643	328	94	129	141	153	0	3	1 180	196
14	Toshkent shahri	662 31	4 705	1 014	10 411	200	8 662	1 071	975	475	672	231	0	7	559	2 681

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, maqolada ko'rsatib o'tilganidek, hozirgi amaliyotda soliq salohiyatini baholashda additiv, regressiyaviy, tuzilmaviy va faktik usullar bir-biridan alohida qo'llanmoqda, ammo yagona milliy metodika mavjud emasligi hududlar bo'yicha natijalarni taqqoslashni qiyinlashtirmoqda. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi tomonidan soliq salohiyatini hisoblashning yagona metodologiyasi ishlab chiqilib, Budget kodeksiga yoki alohida Nizom sifatida mustahkamlash, barcha hududiy boshqarmalar uchun bir xil formula, koeffitsiyent va ma'lumotlar manbalari bo'yicha ishlashni majburiy etib belgilash soliq salohiyatini rasmiy, barqaror va taqqoslanadigan indikatorga aylantiradi.

Ikkinchidan, tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, soliq salohiyati va haqiqiy tushum o'rtasidagi nisbat – ya'ni soliq yig'uvchanlik koeffitsiyenti soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholashda juda sezgir ko'rsatkichdir: aksiz va yer qa'ri soliqlari bo'yicha soliq yig'uvchanlik koeffitsiyenti yuqori, mol-mulk, yer va yagona yer solig'i bo'yicha esa past ko'rsatkichlar kuzatilmoqda. Shu nuqtayi nazardan har bir soliq turi bo'yicha "salohiyat – real



tushum – yig'uvchanlik koeffitsiyenti" uchligi yillik hisobotlarning majburiy qismi sifatida kiritilishi, yig'uvchanlik past bo'lgan soliqlar bo'yicha imtiyozlar va qarzdorlikni inventarizatsiya qilish, kadastr va bozor qiymatini yaqinlashtirish, deklaratsiya va hisoboti to'liq raqamlashtirilgan, soddalashtirilgan tartibda tashkil etilishi, bundan tashqari, soliq yig'uvchanlik koeffitsiyenti ma'lum chegaradan past bo'lgan soliq turlari bo'yicha hududlar uchun aniq KPillar belgilab, moliyaviy rag'batlantirish bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, hududlar kesimida soliq salohiyatining keskin farqlanishi (xususan, Navoiy viloyati va Toshkent shahrida yuqori realizatsiya ko'rsatkichlari, ayrim viloyatlarda esa past darajalar) byudjetlararo taqsimot mexanizmlarini soliq salohiyati indeksi bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois soliq salohiyati indeksi (CCI)ni mahalliy budjetlarni moliyalashtirish formulalariga normativ tarzda kiritish, tenglashtiruvchi transfertlar hajmini jon boshiga YAIM, soliq salohiyati indeksi va yig'uvchanlik koeffitsiyenti kombinatsiyasi asosida belgilash, soliq salohiyati yuqori, ammo yig'uvchanlik past bo'lgan hududlarga moliyaviy yordamni faqat natijaga bog'langan (performance-based) shartlar asosida – masalan, "soya iqtisodiyoti"ni qisqartirish, ma'lumotlar bazasini yangilash va soliq auditi tizimini kuchaytirishga yo'naltirilgan dasturlar ijrosi bilan birga taqdim etish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, maqolada keltirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, faqat bitta formulaga yoki yagona modelga tayangan holda soliq salohiyatini baholash ham, budget daromadlarini prognozlash ham yuqori noaniqlik xavfiga ega, ayniqsa tashqi shoklar va strukturaviy o'zgarishlar sharoitida. Shunga muvofiq ravishda soliq salohiyatini hisoblash va daromadlarni prognozlash uchun raqamlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini (soliq hisobotlari, bojxona, kadastr, bank aylanmasi, YAHM ko'rsatkichlari va boshqalar) yaratish, additiv va regressiyaviy modellardan tashqari, zarur hollarda sun'iy intellekt va gibrid vaqt qatori modellari (ARIMA, TBATS, grey-model va boshqalar)dan tarkibli "model portfeli" sifatida foydalanish, har yili "daromad prognozlari aniqligi auditi"ni yo'lga qo'yish prognozlarning ishonchligini oshirish va tanlangan metodikaning real sharoitga qanchalik mosligini baholash imkonini beradi.

Beshinchidan, maqolada ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari va hududiy tahlillar shuni anglatadiki, soliq salohiyatini aniq baholash natijalari bevosita fiskal strategiya va o'rta muddatli budget rejalashtirish (MTEF) hujjatlariga integratsiyalashtirmagan holda qolsa, ularning amaliy qiymati to'liq ochilmaydi. Shu sababli "Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonun loyihasi bilan birga "Soliq salohiyati va fiskal risklar sharhi" nomli ilovani har yili tayyorlash, unda asosiy soliq turlari va hududlar bo'yicha salohiyat, real tushum va yig'uvchanlik koeffitsiyentini 3–5 yillik kesimda ochib berish, ana shu natijalarga tayanib soliq yukini sektoral va hududiy qayta taqsimlash, imtiyozlarni optimallashtirish va mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlashga qaratilgan maqsadli fiskal choralar paketini ishlab chiqish O'zbekiston soliq tizimini ilmiy asoslangan, barqaror va prognozga mos boshqariladigan tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2023-yildagi "2024-yil uchun davlat budjeti to'g'risida" O'RQ-886-sonli Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-6707765>
2. Abdunazarova, S., Abduganiev, O., Toshaliyeva, S., Kabilova, Z., Panjiev, K., & Bobomuratov, I. (2024). Forecasting local budget revenues based on the ARIMA model (Surkhondaryo region as an example). AIP Conference Proceedings, MPASE 2024.
3. Allayarov, K. (2024). Improving the methods of forecasting tax revenues of the state budget of the Republic of Uzbekistan. Neliti.
4. Arxipseva, L. M. (2008). Налоговой потенциал: теоретические и практические аспекты использования в планировании налоговых поступлений. Налоги и налогообложение, (7), 39–46.
5. Babayev, Sh. B. (2019). Perfection of methodology of forecasting of tax revenues from physical persons: Foreign experience. International Finance and Accounting, 5, 1–7.
6. Babaev, Sh. B. (2024). Forecasting tax revenues to the budget as a factor in the effective management of public finance. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 3(6), 343–346.
7. Barulin, S. V., Yermakova, Ye. A., & Stepanenko, V. V. (2008). Налоговый менеджмент. Moskva: Omega-L.
8. Basnukaev, M. S. (2019). Planning and forecasting in public tax management: Causes and impacts. Journal of Tax Reform, 5(1), 38–49.
9. Chelliah, R. J. (1971). Trends in taxation in developing countries. IMF Staff Papers, 18(2), 254–325.
10. Clemens, J., & Veuger, S. (2020). Implications of the COVID-19 pandemic for state government tax revenues. National Tax Journal, 73(3), 619–644.
11. Fayziev, R. A., Khudoykulov, S. K., Rajapov, Sh. Z., & Axmadjonov, A. A. (2019). The forecasting budget revenues in ARDL approach: A case of Uzbekistan. International Journal of Innovative Technologies in Economy, 1(21), 6–12.
12. Fenochietto, R., & Pessino, C. (2013). Understanding countries' tax effort (IMF Working Paper No. 13/244). International Monetary Fund.
13. Gorskiy, I. V. (2002). Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений. Финансы, (6).
14. Kaushik, P. (2024). The predictive grey forecasting approach for measuring tax collection: Evidence from India's direct tax collections. Journal of Risk and Financial Management, 17(12), 558.



15. Khojakolov, R. (2023). Issues of correct tax forecasting in the formation of state budget revenues. *Economics and Education*.
16. Kozicki, B. (2020). Selected aspects of tax revenue forecasting in Poland. *Scientific Papers of Silesian University of Technology*, 142, 123–135.
17. Le, T. M., Moreno-Dodson, B., & Bayraktar, N. (2012). Tax capacity and tax effort: Extended cross-country analysis from 1994 to 2009 (World Bank Policy Research Working Paper No. 6252).
18. Mawejje, J., & Sebudde, R. K. (2019). Tax revenue potential and effort: Worldwide estimates using a new dataset. *Economic Analysis and Policy*, 63, 119–129.
19. Martinez, A. (2024). Tax potential as an indicator of sustainable dynamic economic development in regions: The case of Mexican states. *Economic Consultant*, 39(1), 45–59.
20. Mirzayev, F. I. (2012). Soliq yig'iluvchanligini hisoblashning uslubi va amaliyoti. *Birja-ekspert*, (3), 9–12.
21. Musgrave, R. A. (1959). *The theory of public finance: A study in public economy*. New York: McGraw–Hill.
22. New Zealand Treasury, & Sense Partners. (2024). Review of the New Zealand Treasury's revenue forecasting: Final panel report & Improving revenue forecasting. Wellington: The Treasury.
23. Okseniuk, I. (2021). Methods of forecasting value added tax revenues for the state budget of Ukraine. *Finance of Ukraine*, 5, 32–45.
24. Ruziev, Z. I. (2022). The role of taxes in the formation of state budget revenues. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(9), 58–65.
25. Serikova, S., Balginova, K., Shakharova, A., & Kurmanalina, A. (2020). Tax revenues estimation and forecast for state tax audit. *Entrepreneurship and Sustainability Issues*, 7(3), 2419–2435.
26. Shevchenko, N. Yu. (2024). How important is the role of indirect taxes in the process of state budget revenue. *Modern Journal of Applied Economics and Justice*, 4(1), 15–25.
27. Skorba, O., Pasko, T., Babenko-Levada, V., & Tereshchenko, T. (2021). Dynamics of tax revenues in the budget of Ukraine and their forecast during the crisis period. *Public and Municipal Finance*, 10(1), 106–118.
28. Talarico, F. A. (2021). Forecasting pandemic tax revenues in a small, open economy: The case of Bulgaria. *Novi Ekonomist*, 15(29), 18–28.
29. Thayyib, P. V., Thorakkattle, M. N., Usmani, F., Yahya, A. T., & Farhan, N. H. S. (2023). Forecasting Indian Goods and Services Tax revenue using TBATS, ETS, neural networks, and hybrid time series models. *Cogent Economics & Finance*, 11(2), 2285649. <https://doi.org/10.1080/23322039.2023.2285649>
30. Tsapulina, O., Makusheva, N., & Ergunova, O. (2020). Assessment of the regional tax potential and its role in the formation of regional budgets. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, 421(2), 022013.
31. United Nations. (2017). *Guidelines for public financial management and revenue forecasting*. New York: United Nations.
32. Ислямутдинов, С. И. (2007). Налоговый потенциал территории: методологические аспекты формирования и использования. Самара. (shu jumladan: www.irt.su/wp-content/uploads/2012/05)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
